

**TA'LIM TIZIMI ISLOHOTLARI, ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

Ummatova Nilufar

Jaylovova Zarina

Xusniddinova Ra'no

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti talabasi

Annotatsiya: Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlar va innovatsiyalar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlar, ilm-fan sohasidagi yaratilayotgan imkoniyatlar, bu islohatlarning davlat rivojlanishidagi muhimligi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, innovatsiya, texnologiya, davlat, raqamli asr, strategiya, investitsiya.

Аннотация: Реформы и инновации в сфере образования важны для социально-экономического развития страны. В данной статье описаны реформы, проводимые в системе образования Узбекистана, возможности, созданные в сфере науки, значение этих реформ в развитии государства.

Ключевые слова: система образования, инновации, технологии, государство, цифровая эпоха, стратегия, инвестиции.

Abstract: Reforms and innovations in the field of education are important for the social-economic development of the country. This article describes the reforms carried out in the education system of Uzbekistan, the opportunities created in the field of science, the importance of these reforms in the development of the state.

Key words: educational system, innovation, technology, state, digital age, strategy, investment.

Mamlakat rivojlanishining eng muhim omillaridan biri bu ta'lim tizimidagi islohatlar va innovatsiyalar bilan bevosita bog'liq. Eskirgan o'quv dasturlari, zamonaviy texnologiyalarning yetishmasligi ta'lim sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ta'lim tizimini rivojlantirish masalasiga yuqori darajada e'tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi. O'tgan yillar davomida bir necha omillar butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimini rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi.

Ta'lim sohasini rivojlantirish yo'lida birinchi qadam bu ta'lim sohasidagi kamchiliklarni aniqlash. Resurslarning cheklanganligi, malakali kadrlarning yetishmasligi va mehnat bozorida kadrlarga qo'yilayotgan talablarning ortib borayotgani ta'lim islohatlariga turtki beruvchi asosiy omillardandir. Ta'lim tizimi oldida turgan yana bir muammolardan biri bu chekka hududlardagi ko'pgina maktablar yetarli darajada molyalashtirilmashligi hisoblanadi. Natijada o'quvchilarni yaxshi natijalarga erishishi uchun zarur bo'lgan texnologiyalar bilan ta'minlay olmaydilar.

Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta'lim va ilm-fan sohasini takomillashtirish borasida qator vazifalar belgilangan.[1] Harakatlar strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri ta'lim jarayonida olib borilayotgan islohatlar samaradorligini yanada yaxshilash va boshqa sohalarda ham davlat va jamiyatning rivojlanishini yanada jadallashtirishdan iborat. Ta'lim-tarbiya tizimini tog'ri tashkil etish, uning standartlarini zamon talabi darajasiga ko'tarish, manaviy jihatdan kuchli bilimga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalashda ko'maklashadi.

Texnologik taraqqiyotning rivojlanishi nafaqat ta'lim sohasini rivojlanishiga, balki insonlar hayotini barcha jabhalarda o'sishiga ko'maklashadi. Texnologiyalarning rivojlanishi talabalarni raqamli asrga tayyorlash uchun samarali xizmat qiladi. Shuningdek ta'lim jarayoniga eng yangi texnologik vositalarni qo'shish va amaliyotlarni kiritish ta'limning rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Smartfonlar, planshetlar va onlayn o'quv platformalaridan keng foydalanish bilim olish va ular bilan shug'ullanish uslubimizni yanada yaxshilash uchun xizmat qiladi. Bugungi kunga kelib bu qurilmalardan foydalanish keng ommalashib bormoqda va bu ta'lim sifatini yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

2022-yil 24-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vaziri Ibrohim Abdurahmonov YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari v.b. Aleksandros Makarigakis bilan uchrashdi. Uchrashuv davomida YUNESKO/ITBning «O'zbekistonda inklyuziv fan, texnologiya va innovatsiya tizimini rivojlantirish» loyihasi doirasida ishlab chiqilayotgan «Ilm-fan, texnologiyalar va innovatsiyalar sohasidagi Milliy siyosati (2021-2030)” muhokama qilindi. Mazkur hujjat loyihasi 2030-yilgacha mamlakatimizda ilm-fan, texnologiyalar va innovatsiyalar sohasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun barqaror shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish maqsadida yaratilgan.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10-12 foizni tashkil etmoqda. Bu YUNESKOning mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun ta'limga yo'naltirilishi zarur bo'lgan investitsiyalar miqdori bo'yicha tegishli tavsiyalaridan, ya'ni 6-7 foizdan qariyb 2 barobar ko'pdir [2]

Ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi islohotlarning o'ziga xos jihatlari juda ham ko'p. Misol uchun bir jihati yangi texnologiyalarni rivojlantirish va ularni jamiyatga tatbiq qilish bo'yicha tajribalar olib borish. Yana bir jihati esa ilmiy tadqiqotlarni olib borishga va o'quv yurtlarida o'qituvchilarni va talabalarini ilg'or taraqqiyotga yo'naltirishdir. Innovatsion rivojlanishda ta'limda eng muhim jihat sanaladi. Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar yurtimizda kundan-kunga yaxshilanib bormoqda. O'tgan davr mobaynida yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish ko'rsatkichlari sezilarli darajada ortib bormoqda. Iqtidorli o'quvchilarni esa chuqurlashtirilgan maktablarga yo'naltirish chora-tadbirlari olib borilmoqda. Chekka hududlardagi o'quvchilarga ham o'qish imkoniyatini yaratish maqsadida chuqurlashtirilgan maktablar uchun yotoqxonalar ham tashkil etilmoqda. Shuningdek bir necha universitetlarga va iqtidorli yoshlar

maktablariga xorijlik kuchli bilim va tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar jalb qilinmoqda.

Ta'lim jarayonlarini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri – bu ta'lim jarayoni bilan innovatsion texnologiyalarining integratsiyasini ta'minlash hisoblanadi. Ta'lim jarayonini rivojlangan davlatlar tajribasi bilan uyg'unlashtirish va uni tubdan isloh qilish elektron ta'lim muhitida o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish jarayonlarini tashkil etishda strategik masala sifatida namoyon bo'ladiki, bu jarayonda innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quvchilarning mustaqil ta'limni tashkil etishda samaradorlikni oshirish, mazkur innovatsion texnologiyalar, jumladan: Kompas 3D muhandislik dasturi, Prezi taqdimot dasturi, Pydroid, Coding C++ mobil dasturlaridan foydalanish bo'yicha kompetensiyalarni shakllantirish kerak bo'ladi. Bular ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'quvchilar uchun mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari, ta'limning elektron resurslarini shakllantirish va rivojlantirishda kerakli bo'lgan sharoitlarni ta'minlashdan iboratdir.[3]

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda ta'limga bo'lgan e'tibor sezilarli ortdi va imkoniyatlar kengaytirildi. Insonlarning ta'lim olishga bo'lgan munosabatlari yaxshilandi. Yosh avlodning bilim olishga bo'lgan qiziqishlari ortdi. So'ngi yillarda mamlakatimizda ilm-fan va innovatsion sohalarida zamon talablariga mos ravishda keng miqiyosli islohatlar amalga oshirildi. Ilmiy tadqiqotchilarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, xalq ta'lim tizimidagi yangilanishlar, oliy ta'limdagi yaratilayotgan qulayliklar, kitobxonlikni va intellektual salohiyatni rivojlantirish maqsadida tashkil etilayotgan olimpiadalar davlatimizning ta'lim sohasiga e'tibori yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mirziyoev Sh M "Bilimli avlod buyuk kelajakning, tadbirkor xalq - farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi "Xalq so'zi" gazetasi 2018 yil 8 dekabr
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanadatakomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori 2020-yil 6 noyab
- 3.Olim Alimnazarov, ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH VOSITALARI 2022 N6
- 4.<https://mininnovation.uz/ru/news/post-459>